

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

2006-yil 21 - 27 - avgust N:34 (66575)

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

## SENING QO'LINGDA HAYOT SHAMI BOR!

Bola dunyoning beg'ubor umidi. Uning jajji yuragida yaxshilik yashaydi. Bolalarning shovqin-suroni, kulgulari har qanday yolg'on, hasad, fisqu fasodlarni o'ldiradi. Shuning uchun ham ularning yo'lini farishta supuradi, deyishadi. Bu sir-sinoatga, kurashlarga to'la dunyoda qismatning achchiq sinovlari bor. Bu sinovlar ba'zan bolalar taqdiriga borib bog'lanadi. Ammo ruhan yoki jismonan nogiron bo'lishidan qat'iy nazar, bola - hayotning ulug' mo'jizasi. Bu shunday mo'jizaki, unga bu dunyoning hech qanday qusurlari kor qilmaydi. Zero, uning jajji yuragini ozoda tuyg'ular bilan bezatuvchi mehribonlari - ota-onasi, ustozlari - Vatani bor. Shuning uchun ham ular yashashni, ijod qilishni, suratlar chizishni yaxshi ko'rishadi.

Muharrir minbari



Bolajon, Vatan tushunchasini qanchalik chuqur tushunsang, shuncha ulug' odam bo'lasan. Uni nechog'lik sevsang, o'shanda qudratli va yengilmas bo'lasan. Sening Vatanning-onang kabi yagona.

Qushlarga parvoz qilib sayrashga, olislarni ko'rishga, jonni qutqarishga qanot berilgan. Jonivorlarga qochib ulgurishga to'rtta oyoq berilgan. Sening qanoting, kuch-quvvating - Vatanningdir. Senga uni ardoqlamoq uchun mehr to'la yurak berilgan. Yuragingning ustiga

sekin qo'lingni qo'ysang «duk-duk» urayotganini eshitasan, bu faqat bir joyda urayapti, u yagona. Xuddi yuraging kabi Vatan ham bir joyda bo'ladi. U hech qachon, hech qayerga seni tashlab ketmaydi.

Oyoqchalaring bosib turgan tuproqni qadimdan QUYOSHLI O'LKA deb ataganlar. Bu-baxtli mamlakat deganidir. Shunday yurtlar borki, u yerda bolalar oylab quyoshni ko'rmaydi. Yana shunday joylar borki, shirintoylar bir parcha oq qorni ko'rmaydilar. Buning uchun ular aybdor emas. Oddiygina qilib tushunsang, ularning yurti shunday iqlimda joylashgan. Sening ona Vatanning esa eng go'zal, eng boy, eng muqaddasidir. Har tong quyoshga turib salom ber. Yashil maysalarga mehr bilan tikil. To'yib-to'yib nafas ol. Vatanning nomini, kimligingni yuragingga g'urur bilan joylab ol.

Sen-mustaqil O'zbekiston farzandi-o'zbeksan. Sen-ma'rifatlis.

Atrofingni o'ragan dov-daraxtlar, gullar, gilyohlar, sayroqi qushlar, parranda-yu darrandalar, hayvonlar bari-bari sening qo'lingga qaragan. Sen ularga shavqatli bo'l. Chunki ular ham sening vatanningda yashayapti, senga begona emas.

Bolajon, sen vatanningni kishanlarsiz, zulmatlarsiz ko'rding. Peshonang yorug' ekan. Uning oldidagi burchlaring haqida hali ko'p gaplashamiz. Faqat yorug' va osuda, erkin va hur Vatanni ko'rish uchun

tug'ilgan ko'zlaringga tikilib, senga havas qilsalar arziydi. Sen Vatanda - shohsan.

Unutma, sening Vatanning - yuragingdek bitta!

Bolajon, sening hayot haqidagi jajji tasavvurlaring shu qadar yorug'ki, unda faqat bayramlar va eng baxtli kunlar yashaydi. Biz esa seni jajji tasavvuringdagi hayot suratini to'ldirmoqchimiz. Hayot - bayram ham yoki sen multfilmlarda ko'radigan yalmog'izning uyi ham emas, balki faqat o'zing yaratishing mumkin bo'lgan eng yaxshi yoki eng yomon kundir. Har kuning bayramdek o'tishi uchun sen atrofingdagi odamlarning ko'nglini topgin, umr saodatini angla.

Hayot o'z holicha hech narsani anglatmaydi. Uning qimmatini qanday yashay bilish bilan bog'liqdir. Sen shunday yashaginki, umring yillar bilan emas, qilgan xayrli, ezgu ishlaring bilan o'chansin.


Butun dunyoga tanilib borayotgan O'zbekistonimizda qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy.

-Hayot mening qo'limga bir lahza berilgan sham, -deydi donishmandlardan biri. -Men uni kelajak avlodga yetkazishdan oldin mumkin qadar yorug'roq alanga olishiga majbur etaman.

Sening qo'lingdagi hayot shamida bobolarning orzulari, armonlari, kurashlari bor. Sen bu shamga xiyonat qilmasliging kerak. Xalqingning, Vatanningning kuniga yaraguvchi himmat egasi bo'l. Shunda xalqing to'q, Vatanning obod bo'ladi.

Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi birinchi maslahatchisi janob Kristof Lyo RIGOLYOR:

- Mustaqillik bayrami yosh davlatlar uchun eng muhim voqea sanaladi. Fransiya O'zbekiston musta-



## VURTING KELAJAGISIZ

Do'stlar tabrigi qilligini birinchilardan

bo'lib e'tirof etgan davlatdir. Mana, o'shandan buyon diplomatik munosabatlar, hamkorliklar yaxshi davom etmoqda. Bizda ham 14-iyul - mustaqillik kuni juda tantanali nishonlanadi. Chunki fransuzlar shu kuni inqilob bilan monarxiya tuzumidan demokratiyaga o'tgan. Men diplomat sifatida shuni aytamanki, 14-iyul va 1-sentabr davlatlarning yangi pog'onaga, yangi davrga o'tishga xizmat qilgan unutilmas tarixiy sanadir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi nishonlanayotgan shu kunlarda o'tgan yillarni sarhisob qiladigan bo'lsak, aslida 15 yil siyosiy-ijtimoiy tuzumni shakllantirish uchun qisqa davr bo'lsa-da, lekin ko'p va salmoqli ishlar qilindi. Bundan keyin ham O'zbekiston taraqqiyot yo'lida olg'a ketishiga shubham yo'q.

«Tong yulduzi» gazetasi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan ekan, demak, men bevosita yoshlarga o'z tabriklarimni yetkazishim mumkin. Bugungi yosh avlod kelajakda O'zbekistonni boshqaradi. Shunday ekan, ular ishonchni, qat'iyatlikni yo'qotmasin. Osoyishtalik, osuda osmon, sihat-salomatlik yo'ldoshlari bo'lsin. Ko'proq xorijga chiqishga harakat qilishsin. Chunki o'zgalarning yutug'i yoki kamchiliklari har qanday odamga eng yaxshi saboq bo'ladi. Birovning xatolari darhol ko'zga tashlanadi. Shundan o'ziga xulosa chiqarib, xato qilmaslikka harakat qiladi. Yutuqlarni o'zlashtirib, o'z yurtida qo'llashga intiladi. Yangiliklarni hayotga tadbiq qilish yo'li bilan yigit-qizlar davlat rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadilar.



**Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan**

Aytishlaricha, bundan bir necha yil avval chet elga borgan yurtdoshlarimiz «o'zbekistonlikmiz» deyishganda, ba'zi xorijliklar yo pokistonlik yoxud rusiyalik deb tushunisharkan. Agar Samarqand-u Buxoroni tilga olishsa, darhol ta'zim qilib, bu azim shaharlarni bilishlarini aytisharkan. Yer yuzining sayqali bo'lmish Samarqand shahri o'zining tarixiy obidalari, necha asrlar bilan yuzlashgan mahobatli va maftunkor osori - atiqalari bilan tillarda doston bo'lgani aniq. Birgina Registon ansamblini olaylik. Bir-biriga monand qurilgan uch obida - Ulug'bek, Tillakori, Sherdor madrasalaridagi naqshlar jilolari har qanday kishini sehrlab qo'yadi. Ular qarshisida qalb hayratga tushadi, qiyosiga so'z topolmaydi.

Yaqinda Prezidentimizning «Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori e'lon qilingani, Mustaqillik shodiyonalariga shahrimiz bayramining ham ulanishi bizni yana-da quvontirdi.

**Sadoqat HAMIDOVA,**  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani,  
G'alaba jamoa xo'jaligi.



Men Pavla Ro'ziyeva Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi Dangizton qo'rg'onidagi 6-o'rta maktabning 8-sinfida o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar o'qish bilan birga she'rlar mashq qilib turaman. Bu yil maktabimizda bo'lib o'tgan Zulfiyaxonim qizlari ko'rik-tanlovida she'rlarim bilan ishtirok etdim. Tahririyatga she'rlarimdan bir nechtasini yuborayapman. Agar tengdoshlarimga she'rlarim va topishmoqlarim ma'qul bo'lsa, boshim ko'kka yetardi.

**SHOIR BO'LMOQ...**

Shoir mushkuli oson, bu-ku tayin gap,  
Kuylaysan borliqni, tabiatni ham.  
Lekin hech kim bo'lmas qalbingda faqat,  
Jo'sh urar muhabbat hamda qayg'u, g'am...  
Qo'lingga olasan qalam va qog'oz,  
Va yoza boshlaysan dil tuyg'ularing.  
Birov demas, shoir, daming ol biroz,  
Ular she'r deb o'qir dil qayg'ularing...  
Qog'ozga ko'chirib dil tuyg'ularing,  
G'am-anduhga to'la misra titasan.  
Xayol ummoniga bir onga cho'mib,  
Bor tashvishlaring sen unutasan.

**TOPISHMOQLAR**

Kamalakdek tovlanar,  
Qiz tomondan ovlanar.  
Vatanimiz Marg'ilon,  
Urfdan tushmas hamon.

Lo'ppi yuzli oyimqiz,  
Oq ekan kiyimingiz.  
Sizni hamma sevadi,  
Nima ekan ismingiz?

Tovlanar kamalakmas,  
Uchadi kapalakmas.  
Ba'zan gapiradi u,  
Shohsanam, ayt, nima u?


Bir beshikning ichida,  
Uchta-to'rta chaqaloq.  
Qizil ko'rpa yopingan,  
Kiyimlari esa oq.

**Pavla RO'ZIYEVA.**

**QARSHI SHAHRI**

Men shahrimiz tarixiga qiziqaman. Yaqin kunlarga Qarshi shahri avvallari Kesh deb nomlangan deb bilardim. Endi bilishimcha, eng qadimiy nomi Nasaf ekan. Nasaf shahrining sharqda yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri sifatidagi dovrug'i azal-azaldan ma'lum. Bu ko'hna kentdan ko'plab ilm darg'alari chiqqan bo'lib, qadimiy yozma manbalarda an-nasafiy nisbasi bilan bir necha yuzlab olim-u ulamolar, buyuk mutafakkir donishmandlarning tabarruk nomlari zikr qilingan. Qashqadaryo vohasida kamol topgan mana shunday ulug' ajdodlarimizning tarixi, faoliyati, ma'naviyatimiz xazinasiga qo'shgan hissasini o'rganish, targ'ib-u tashviq qilish biz yosh avlod zimmasida ekanligini unutmashimiz kerak deb o'ylayman.

**Gavhar JO'RAYEVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 32-o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

**Xayr bog'cham, salom maktab!**

Men yetti yoshga to'ldim. Bu yil maktabga boraman. «Tong yulduzi» gazetasida chop etilayotgan she'r va ertaklarni hijjalab o'qib, savodimni chiqardim. To'g'ri, avval o'qituvchi buvijonimdan harflarni o'rganganman. Ular doim qo'llariga kitob-daftar olsalar, «menga ham o'qish-yozishni o'rgating», deb xarxasha qilardim. Hozirda gazetangizda berilgan she'rlarning ko'pini yod olganman.

Men kelajakda a'lochilik o'quvchi bo'laman. O'qishning birinchi kunidayoq ustozimga «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qilishlarini aytaman.

Gazetangiz orqali ustozlarning hammalarini mustaqillikning 15 yillik bayrami va yangi o'quv yili bilan chin dildan qutlayman.

**Iqboloy NORMUHAMMADOVA,**  
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi,  
33-maktab tayyorlov guruhi o'quvchisi.

**Xandalar****MUZQAYMOQ KIMNIKI?**

Muzqaymoq olish uchun kelgan bir bola sotuvchini topolmay: «Muzqaymoq kimniki, qarab yuboringlar?» deya baqira boshladi. Shunda olisdan yugurib kelgan Sobit: «Meniki edi, bering, erimasdan yeb olay» dedi xaloslaganicha.



Dilbar uyda chug'urlashib o'ynayotgan uka va singillariga qarata:

-Qani, tashqariga chiqinglar-chi, uy to'zib ketdi,-dedi.

-Axir to'zigan uy-ku, biz emas. Uyning o'zi tashqariga chiqaversin,-javob berdi mahmadona singlisi.

**Nargiza SHARIPOVA,**  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-o'rta maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi.

**O'N BESH YOSHING AUBORAKI**

Mustaqillik! Naqadar totli so'z. Uning sharofatidan bizga juda ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda. Yurtimizda jahon andozasiga mos muhtasham sport inshootlari, o'quv maskanlari qad rostladi. Bular hammasi bizga atalgan. Bizning bilimli va ilmi bo'lib, xorijlik tengdoshlarimiz bilan bellasha olishimiz uchun hamma sharoitlar muhayyo. O'zbekistonimizni dunyoga olib chiqadigan yosh sportchilarning ko'payishi ham faxrimizdir.

Biz ham yurtimizning bundan-da go'zal, hayotimizning farovon bo'lishida o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Shunday ekan, biz yoshlar, faqat o'qishimiz va izlanishimiz lozim. A'lo baholarimiz va yutuqlarimiz istiqbol bayramiga tuhfa bo'lajak.

**Gullola MELIQO'ZIYEVA,**  
Farg'ona viloyati, O'qchi qishlog'i.

**«KAMALAK»NING RAYOSATI**

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Toshkent viloyati bo'limi Kengashi homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkilotining navbatdagi X Rayosat yig'ilishi shu yil 12-avgust kuni Bo'ka tumanining maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji binosida bo'lib o'tdi. Yig'ilishda viloyatning barcha tuman, shahar, «Kamalak» bolalar tashkiloti raislari, Sardorlar Kengashi raislari hamda hamkor tashkilotlardan vakillar - ja'mi 60 nafar ishtirokchilar qatnashdilar. Yig'ilishni viloyat «Kamalak bolalar tashkiloti raisi B.Jabborova ochib berdi. Unda viloyat «Kamalak» bolalar tashkilotining 6 oy davomida qilingan ishlari, tashkilotning V anjumani yakunlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, tashkilotning navbatdagi Konferensiyasini o'tkazish jarayonida qilinadigan ishlar to'g'risida tuman, shahar raislariga ko'rsatmalar berildi. Yig'ilishdan so'ng ishtirokchilar Bo'ka tumanidagi 15- «Mehribonlik uyi» hamda Madaniyat mahallasida bo'lib, «Mustaqillik bolalar nigohida» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazishdi. G'olib chiqqan ishtirokchilarga Viloyat Kengashi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbir davomida «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilariga «Diydor» teatr-studiyasi ijrosida sahna ko'rinishlari qo'yib berishdi, ular ijrosidagi kuy va qo'shiqlar bolalarga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

**Nargiza SAYDULLAYEVA.**

**JAJJI MUXLISMAN**



Bolalar, bozor iqtisodiyoti hukm surayotgan davrda dunyoga chiqish uchun o'ta kuchli bilimingiz yoki katta miqdorda pulingiz bo'lishi kerak, to'g'rimi? «Puling bo'lsa, changalda sho'rva qaynaydi», deyishadi. Bo'lsa bordir. Ammo men hech qachon pulga qiziqmaganman, desam ishonavering. Yotoqxonadagi xonadoshim Samad Chorsu bozoridan non olib kelib, Qora Qamish dahasidagi guzarda pullab, yaxshigina pul ishlayotganidan quvonib gapirganida ham, stipendiyamni harjlab qo'yib, biroz qiynalib qolganimda ham qo'limdan kitob-daftarim tushmasdi. Natijada, eng a'lochi talaba sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan «Umid» iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga hujjat topshirib, 1997-2000-yillar AQSHning Nyu-York shahrida joylashgan Peys universitetida tahsil olish baxtiga muyassar bo'ldim. O'zbekistonga qaytgach, Andijon shahri Markaziy banki, viloyat hokimiyati, so'ngra poytaxtda Vazirlar Mahkamasida mas'ul xodim bo'lib ishladim. Agar bilimim bo'limganda, bunday dargohlarni tushimda ham ko'rmagan bo'lardim.

Bir yil avval magistraturaga harakat qilib, AQSHning Florida shtati, Mayami shahridagi Bari universitetiga kirdim. Hozir yana talabalik gashtini surmoqdaman. Xullas, men haqiqiy badavlat va baxtli insonman. Boyligim doimo o'zim bilan. Gapimni tushungandirsiz?.. Ma'naviy boylik, ya'ni, bilim haqida, men va tengdoshlarimga yaratilgan imkoniyatlar haqida gapiryapman. Baxtimni butun qilgan ISTIQLOLga ta'zim qilaman. Xulosa chiqarish sizdan.

Ulug'bek QOSIMXO'JAYEV, AQSH, Florida shtati, Mayami shahri.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi», «O'z DAEWOO avto» yopiq turdagi hissadorlik jamiyati bo'limi boshlig'i Baxtiyor NAZAROV O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n to'rt yilligi bilan mamlakatimizning iqtisodiy yuksaltirish va islohotlarni oshirishdagi katta mehnati uchun munosabati salohiyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi katta mehnati uchun xizmatlari, ko'p yillik samarali faxriy unvonlar bilan mukofotlangan yurtdoshlarimizdan biri

## BILIM YOXUD PUL

### Bayram tilaklari

## ISTIQLOL SHAROFATI

Belgiya Qirolligining O'zbekistondagi faxriy konsuli janob Jan Klod BOJAN: «Qadri o'zbekistonlik bolalar! Orangizda zakiy, aqlli va dono bolalar ko'pligiga aminman. Chunki, mana o'n yildan buyon shu yurtda faoliyat olib boryapman. Maktablar, oliy o'quv yurtlari, tanlov va sport musobaqalarida men ham mehmon sifatida ishtirok etib, sizlarning qo'lga kiritayotgan yutuqlaringizni ko'rib, quvonaman. Mustaqillik sharofati bilan xorijda o'qiyotgan tengdoshlaringiz safiga sizlar ham qo'shilasiz degan umiddaman.»



Istiqlol bayrami shukuhi arafasida shunday deydi:

– Men mustaqilligimizning ilk yillarida tamal toshi qo'yilganidan buyon «O'z DAEWOO avto» korxonasida ishlayman. Bolaligimdan mashinalarga, ularning harakatlanish moslamalariga qiziqardim. Shuning uchun ham avtomobilsozlik kasbiga mehr qo'yganman. Shu soha bo'yicha tahsil olib, harakatlanish qoidalarini puxta o'rganib, zavodda ish faoliyatimni davom ettiryapman. Payvandlash

sehining «Damas» yo'lini ixchamlash-tirgan holda boshqa joyga ko'chirish, uning o'rniga «Matiz» yo'lini montaj qilish ishlarida jonbozlik qilganman desam maqtanchoqlik bo'ladi. Lekin gapim rost. Aziz bolajonlar, sizlarga yuksak orzular haqida o'ylang, orzuingiz yo'lida harakat qiling, izlaning deymen. Chunki kuni kelib, osmon qadar orzuingiz, albatta, ushalar ekan. Shirin orzular hamrohingiz bo'lsin.

## CHASHMAGA KON MAKON

Andijon viloyatida Buloqboshi degan tuman bor. Nomidan ko'rinib turibdiki, bu yerda totli va shifobaxsh buloqlar bisyor. Shuning uchunmi, suvi ham shirin, ham shifobaxsh. Buloqning lazzatli suvidan simirgan odam ming dardga davo toparkan...

Ham ziyorat, ham xizmat taqozosi deganlaridek, «Tong yulduzi» obunasi masalasida tuman xalq ta'limi bo'limi ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i Abdurasul Haydarovni suhbatga tortdim.

– Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufida 31ta umumta'lim maktablari, 2ta ixtisoslashtirilgan maktab internati, 1ta sanatoriya-internat tipidagi maktab hamda 4ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda 25501 nafar o'quvchilar ta'lim olishadi. Biz asosan o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil to'garaklarning ahamiyati beqiyosligini anglagan holda ularni turli to'garaklarga jalb qilishni yo'lga qo'yganmiz. Yana «Maktab, mahalla, oila hamkorligi», «Maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish», «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzularida seminarlar o'tkazamiz. Tuman prokuratura, ichki ishlar boshqarmasi, tuman hokimligi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati tuman ma'naviy-ma'rifiy kengashi, «Sog'lom avlod uchun» tuman bo'limi hamkorligida o'quvchi yoshlar o'rtasida turli mavzularda suhbatlar, uchrashuvlar va muloqotlar o'tkazib, o'quvchilarni

o'z huquqlarini anglab yetishiga, burch va qilishga o'rgatamiz. Yaqinda yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish bo'yicha insholar ko'rik-tanlovini o'tkazib, o'quvchilarni g'olib o'quvchilarni rag'batlantirdik. Yozgi ta'til davomida G'afur G'ulom nomli bolalar oromgohida 185 nafar, 14-ixtisoslashtirilgan maktab internatida 43 nafar, 43-maktab internatda 100 nafar o'quvchilar uch mavsumda dam olib, «Siz qonunni bilasizmi?», «Qishlog'ingiz tarixi qanday?», «O'yla, izla, top» kabi tanlovlar hamda qiziqarli sport musobaqalari tashkillashtirib dam oldilar.

## O'QUVCHILARIMIZNING BO'SH VAQTLARI YO'Q

– O'zingizga ma'lum, -deya suhbatni davom ettirdi Abdurasul aka, - o'quvchilarimizga maktabdan tashqari vaqtda ham javobgarmiz. Shuning uchun yozgi ta'tilga chiqishdan avval har bir o'quvchining otanasidan javobgarlikni o'z bo'yniga olish haqidagi xatini olaman. Afsuski, kutilmagan holatlar ham bo'lib turadi-da. Masalan, tumanimizdagi bir bola soy bo'yida maymunjon teraman deb suvda oqib ketdi.

Yil boshidan esa uchta transport hodisasi ro'y berdi. 9-sinf o'quvchisi Doston Rashidovni o'zining aybi bilan mashina turtib ketib, natijada chap qo'li lat yedi. Yana boshqa transport hodisalarida haydovchilarning aybi bilan bir o'quvchimiz vafot etdi, biri tan jarohati oldi. Shunday fojialar bo'lmasligi uchun yo'l harakati xavfsizligi darslari jiddiy yo'lga qo'yilgan. Darslarni haydovchilik guvohnomasi bor o'qituvchilar har bir maktab qoshidagi avtomaydonchada jonli tarzda olib borishadi. Yo'l bo'yilarida joylashgan maktablar oldiga «Diqqat, bolalar!» degan belgining qo'yilishi doim nazoratimizda bo'ladi.

Muharrama PIRMATOVA suhbatlashdi.



Respublikamizning Navoiy viloyati haqida gap ketganda, ko'ha, qadimiy kabi nisbatlarni qo'llay olmaymiz. Unga navqiron deya nisbat berishimiz mumkin. Sababi, bu viloyat 1982-yilda Buxoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil topgan. 1988-yilda ma'muriy birlik sifatida tugatilib, 1992-yil boshida qayta tiklandi. Maydoni 111, 0 ming km. kv., aholisi 802,3 ming kishiga yaqin bo'lgan bu mo'jazzina viloyat oltin, kumush konlari, ko'plab yerosti qazilmalariga boy bo'lgan. Nurota tog' tizmalari, Qizilqum cho'llari, Zarafshon daryosi hamda Navoiy konmetallurgiya kombinati, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi kabi yirik sanoat inshootlari bilan faxrlansa arziydi. Qadimdan mashhur allomalari, shoir-u faylasuflari, adib va muhandislari, mohir xattot va tarjimonlari, Karminiy taxallusi bilan ijod qilgan o'nlab ijodkorlari shu zaminning faxri sanaladi. Keyinchalik adabiyot maydoniga kirib kelgan Dushan Fayziy, Yodgor Baxshi, Oydin Hojiyeva, Amir Po'ltan, Ashurali Jo'rayev kabi ijodkorlar ham shu so'lim go'sha farzandlaridir.

Yaqinda ana shu viloyatga xizmat safariga o'tildik. Navoiy, Qiziltepa, Xatirchi, Karmana, Bo'ston kabi tuman va shaharchalarida bo'ldik. Qayerda maktablar, kollejlarni, maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lsa, tabiiyki biz ham o'sha yerdamiz. Chunki «Tong yulduzi» aynan shunday maskanlarda ta'lim-tarbiya topayotgan o'g'il-qizlarimiz.

**Muxbir safardan qaytdi**

**«TONG YULDUZI» FAQAT MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN EMAS**

Safarimizni Xatirchi tumanining eng so'lim, xushmarzara go'shalaridan birida joylashgan «Agroiqtisodiyot» kollejidan boshlab, uning direktori Jumaqul aka Qurbonov bilan hamsuhbat bo'ldik:

-750 o'ringa mo'ljallangan bilim dargohimizda 2005-2006-o'quv yilida 902 nafar o'quvchi moliya agenti, buxgalteriya hisobi, bank ishi, huquq va ijtimoiy muhofaza, radiotexnika va telemexnika kabi 11 xildagi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olishdi. 38ta fan kabinetini, 4ta amaliyotxonasi, majlislar zali va sport zali, 130 langan ozoda va sarishta bo'ldi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi rahbarligida 132 nafar lanishdi. O'zlashtirishi ham e'tibordan chetda o'quvchi bilan o'qituvchilari nimizdan ham alo kollejlara o'nafar o'quvchi turli viloyat olimpiadasida ishtirok

O'quvchilarimiz bilimga chanqoq yoshlar. Darsdan bo'sh vaqtlarini behuda o'tkazishmaydi. Turli to'garaklarga qatnashadi, kompyuter saboqlarini o'rganishadi. Juda ko'plab gazeta va jumallarga obuna bo'lishgan. Lekin ular orasida «Tong yulduzi» yo'q. Men bu gazeta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan deb yurardim. Diqqat bilan kuzatsam, uning sahifalarida litsey va kollejlarga ham keng o'rin berilar, u yerda tahsil olayotgan o'quvchilar hayotiga oid ko'plab qiziqarli maqolalar chop etilarkan. Nasib bo'lsa, gazetaning bu yilgi obunachilari orasidan bizning o'quvchilarimiz ham munosib o'rin egallashadi. Kollejimiz haqida, o'qishda va sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida maqolalar yozib turishadi, chiqarasizlarmi?

-Albatta-da, axir bu ularning gazetasi-ku, deymiz mamnunligimizni yashirolmay. Ta'til kunlari bo'lgani uchun o'quvchilar bilan gaplasha olmaganimizga achinib turgandik. Omadni qarangki, 5-6 nafar o'g'il-qiz qo'llarida supurgi, chelak ko'targancha kollej hovlisiga kirib kelishyapti-da!

-Hademay sentabr eshik qoqadi. Kollejimizni supurib-sidirib, yangi o'quv yiliga taxt qilib qo'yaylik deb kelyapimiz, deydishdi ular baravariga.

Maqsadimizni anglagach, qadrdon go'shalari, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida to'lqinlanib gapira ketishdi.

-To'g'risini aytсам, maktabda o'qishga unchalik xushim yo'qroq edi, deya so'z boshladi Bahromjon ismli bir yigitcha.-Bundan ota-onam ham juda xafa bo'lishardi. Hozir esa ismi-sharifimni yaxshi o'quvchilar qatorida o'qishadi. Bu yutuqlarimning sababchilari mehriyaro ustozlarim, deb bilaman. O'z fanlariga qiziqтира olganlari uchunmi, o'qishga zo'r ishtiyog bilan kirishib ketdim.

-Bu yerda bo'sh vaqtimiz ham juda maroqli o'tadi-da, deya suhbatimizga qo'shildi uning do'sti. -12ta fan, futbol, voleybol, basketbol, shaxmat kabi 6ta sport to'garaklari bizning ixtiyorimizda. Turli mavzularda o'tkaziladigan tadbir va kechalarimizni-ku gapirmasak ham bo'ladi. «Salomatlik siri», «Oilda tibbiy madaniyatni oshirish», «Giyohvandlik - asr vabosi» kabi mavzulardagi ochiq muloqotlar, suhbatlar, uchrashuvlar shular jumlasidandir...



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...

**YURTNING NAVQIRON GO'SHASI**

Bolajonlar hamda ularning ustozlari bilan qilgan suhbatimizdan ularning bilim olishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan hamda endi bu bilim dargohida ham o'quvchilarimiz bo'lishidan ko'nglimiz to'lib, yana yo'lda davom etdik.

Xo'sh, tumandagi sportsevar bolajonlar uchun qanday sharoitlar yaratilgan? Bu savolimizga javob olish maqsadida Xatirchi tumani Sport qo'mitasi raisi Yasha Xalayev bilan suhbatlashdik:

-Tumanimizda XTbga qarashli 85ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, unda 41787 nafar o'quvchi tahsil oladi. Shulardan 40536 nafari doimiy ravishda sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanib kelishadi. Bu o'quvchilarga saboq berayotgan 241 nafar o'qituvchining 72 nafari gina oliy ma'lumotli, xolos.

Xalq ta'limi tizimi maktablarida darsdan tashqari basketbol, voleybol, qo'l to'pi, o'zbek kurashi, stol tennisi kabi 9ta sport turidan sport seksiyalari mavjud bo'lib, 786 guruhda 16900 nafar o'quvchi sport bilan muntazam shug'ullanmoqdalar.

Tuman bolalar sportini rivojlantirish jam'arasi bosh mutaxassisi, tuman xalq ta'limi bo'limi jismoniy tarbiya bo'yicha uslubshunosii, tuman sport maktabi direktori Mavlon aka Qurbonov boshchiligida sport ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Tuman maktablarida 31ta sport zali mavjud. «Lochin» nomli sport majmuasi, «Tasmachi» o'yingohlari qayta qurilib, ishga tushirildi.

Umumta'lim maktablarida saboq olayotgan o'quvchilarimizdan tuzilgan jamoamiz vakillari 2004-yilda viloyatda o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasida 7-o'rinni egallagan bo'lsa, 2005-yilda esa 3-o'ringa ko'tarildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu musobaqalarda 2-, 5-, 7-, 12-, 20-, 24-, 36-, 38-, 39-, 46-, 54-maktab o'quvchilariga ishtirok etishdi, xolos. Chunki bu maktablarda tajribali, malakali, oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchilari dars berishadi-da.


Ayrim maktablarda sport zallari, maydonchalari, anjomlari bo'lsa ham shu maktablardan negadir chempion bolalar yetishib chiqmayapti. Ayrim maktab o'quvchilari jismoniy tarbiya darslarida sport formasini kiyishga ahamiyat berishmaydi.

Tumandagi 10-BO'SMga qarashli bo'lgan tennis maydonlarida shug'ullanadigan o'quvchilarning ko'rsatkichlari yuqori darajada. Lekin bu maskanda shug'ullanayotgan bolajonlar uchun shart-sharoitlar yetarli darajada emas. Ular uchun kiyinish, yuvinish xonalari qurib berilsa, yoritish va isitish uskunalari sozlab berilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Lekin shunga qaramay tumanimizda sportsevar bolajonlar soni ortgandan ortib boryapti. Bunga maktablarda, mahallalarda tez-tez o'tkazib turiladigan sport musobaqalari, bellashuvlar turki bo'layotgan bo'lsa, ajabmas. Yaqinda ana shunday bellashuvlardan biri Damariq mahallasida bo'lib o'tdi. Sportning 12 turi bo'yicha o'tkazilgan viloyat «Umid nihollari» sport musobaqasining final bosqichida tumanimiz sportchilari ham muvaffaqiyatli qatnashdilar. Viloyatning 10ta tumani orasida umumjamoa hisobida 4-o'rinni egalladilar.

Deyarli barcha mahalla va hududlarda «Yo'zgi ta'til - 2006» sport musobaqalari o'tkazildi. G'oliblarga mahallalar tomonidan sovg'alar topshirildi. Kuni kecha tumanimizdagi «Lochin» stadionida «Kamolot» kubogi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar sportning 6 turi bo'yicha bellashishdi.

Musobaqada 5-, 7- va 9-maktab o'quvchilari birinchi o'rinlarni egallashdi.

Xizmat yuzasidan tez-tez viloyatlarga, tumanlarga boramiz, ko'plab insonlar bilan hamsuhbat bo'lamiz. Ularning aksariyati qo'lga kiritgan yutuqlari, erishgan ijobiy natijalari haqida gapiribni yoqdirishadi. Lekin Yasha aka Xalayev kabi jonkuyar rahbarlar mehnat qilarkan chekka tumanlardan ham sportchi o'quvchilarimiz bundan ham ko'payadi deb umid qilamiz.



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...

**Orzugul Bo'stonning talaba qizi. Ijod gulshanidan o'z gullarini saralash uchun qo'ldan qalamin tashlamaydi. Fikrlari teran, mushohadalari dadil. Bu uning nurli kelajagidan dalolatdir.**

Kun kelib, Bo'stondan ham Oydin Hojiyevadek yana bir ajoyib shoira yetishib chiqsa, ajabmas.

viloyatda o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasida 7-o'rinni egallagan bo'lsa, 2005-yilda esa 3-o'ringa ko'tarildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu musobaqalarda 2-, 5-, 7-, 12-, 20-, 24-, 36-, 38-, 39-, 46-, 54-maktab o'quvchilariga ishtirok etishdi, xolos. Chunki bu maktablarda tajribali, malakali, oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchilari dars berishadi-da.

Ayrim maktablarda sport zallari, maydonchalari, anjomlari bo'lsa ham shu maktablardan negadir chempion bolalar yetishib chiqmayapti. Ayrim maktab o'quvchilari jismoniy tarbiya darslarida sport formasini kiyishga ahamiyat berishmaydi.

Tumandagi 10-BO'SMga qarashli bo'lgan tennis maydonlarida shug'ullanadigan o'quvchilarning ko'rsatkichlari yuqori darajada. Lekin bu maskanda shug'ullanayotgan bolajonlar uchun shart-sharoitlar yetarli darajada emas. Ular uchun kiyinish, yuvinish xonalari qurib berilsa, yoritish va isitish uskunalari sozlab berilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Lekin shunga qaramay tumanimizda sportsevar bolajonlar soni ortgandan ortib boryapti. Bunga maktablarda, mahallalarda tez-tez o'tkazib turiladigan sport musobaqalari, bellashuvlar turki bo'layotgan bo'lsa, ajabmas. Yaqinda ana shunday bellashuvlardan biri Damariq mahallasida bo'lib o'tdi. Sportning 12 turi bo'yicha o'tkazilgan viloyat «Umid nihollari» sport musobaqasining final bosqichida tumanimiz sportchilari ham muvaffaqiyatli qatnashdilar. Viloyatning 10ta tumani orasida umumjamoa hisobida 4-o'rinni egalladilar.

Deyarli barcha mahalla va hududlarda «Yo'zgi ta'til - 2006» sport musobaqalari o'tkazildi. G'oliblarga mahallalar tomonidan sovg'alar topshirildi. Kuni kecha tumanimizdagi «Lochin» stadionida «Kamolot» kubogi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar sportning 6 turi bo'yicha bellashishdi.

Musobaqada 5-, 7- va 9-maktab o'quvchilari birinchi o'rinlarni egallashdi.


Xizmat yuzasidan tez-tez viloyatlarga, tumanlarga boramiz, ko'plab insonlar bilan hamsuhbat bo'lamiz. Ularning aksariyati qo'lga kiritgan yutuqlari, erishgan ijobiy natijalari haqida gapiribni yoqdirishadi. Lekin Yasha aka Xalayev kabi jonkuyar rahbarlar mehnat qilarkan chekka tumanlardan ham sportchi o'quvchilarimiz bundan ham ko'payadi deb umid qilamiz.

Vatan - onajonim, ilhomim sensan. Sen kuylamoqqa tillarim ojiz. Sen viqorli tog'day bo'lganing bois. Ammo kuylamog'im mengadir joiz. Vatan - onajonim, ilhomim sensan.


Senda aks etadi o'nying jamoli, Yal-yal yonib turgan yulduz misoli. Qalbingda hur vatan, o'zliging bodur, Muhammad Mustaf o bizlarga yordir.

Sen mening mehribon, mushfiq onamsan. Meni suyib aytding, o'zbek bolamsan. Qalbingda gupurgan ezgu jolamsan. Vatan, sen ko'kdagi mohtobimsan.

Oygul OCHILOVA.



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...

**VATAN - ONAJONIM, ILHOMIM SENSAN**

Vatan - onajonim, ilhomim sensan. Sen kuylamoqqa tillarim ojiz. Sen viqorli tog'day bo'lganing bois. Ammo kuylamog'im mengadir joiz. Vatan - onajonim, ilhomim sensan.

Senda aks etadi o'nying jamoli, Yal-yal yonib turgan yulduz misoli. Qalbingda hur vatan, o'zliging bodur, Muhammad Mustaf o bizlarga yordir.

Sen mening mehribon, mushfiq onamsan. Meni suyib aytding, o'zbek bolamsan. Qalbingda gupurgan ezgu jolamsan. Vatan, sen ko'kdagi mohtobimsan.

Oygul OCHILOVA.

Xayolimizdan shunday o'ylar kechib yo'lda davom etarkanmiz, shodon qiyqiriqlari qulog'imizga chalindi. Peshtoqiga «Yulduzcha» nomli bolalar bog'chasi deb yozib qo'yilgan 2-qavatli shinamgina binoga kirib borarkanmiz, biri-biridan shirintoy kichkintoylar qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, salom berib kutib olishdi. Ikki rangdagi sport kiyimchalarini kiyib olgan hamda soya-salqin o'rindiqlarda o'tirib, ularni olqishlayotgan bolajonlar mehribon tarbiyachilari Nasiya Bayramova boshchiligida «Quvnoq startlar» sport musobaqasini o'tkazishayotgan ekan. Yana bir guruh o'g'il-qizlar esa bog'da allanimalar qilishyapti.

Yaqinroq borib so'rasak, tarbiyachilari Raniya Isxakova bilan birgalikda o'zlari bahodra gul ekan maydonchani begona o'lardan tozalashayotgan ekan.

-Istasak, bu o'larni o'zimiz yarim soatga qolmay tozalab tashlaymiz. Lekin bu ishlarni bolajonlar bilan birgalikda qilishdan maqsadimiz - ularni yoshlikdanoq mehnatsevarlikka o'rgatish, sport musobaqalari orqali sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalashdir, deydishdi bog'cha opalari.

-Bog'changiz o'zingizga yoqadimi? - so'raymiz kichkintoylardan. -Qaysi biringiz ertalab «Bog'chaga bormayman», deya xarxasha qilasiz?

-Ha, juda yoqadi, -chug'ur lashib ketishdi bolajonlar. -Hech birimiz yig'lab kelmaymiz. Bog'cha opalarimiz, mudira opamiz bizni juda yaxshi ko'rishadi. Uyda qolsak, zerikib qolamiz-ku... Suhbatimizni bir chekkada kulimsirab kuzatib turgan ayol shu bog'chaning mudirasi Zulxumor opa Tashmetova ekanlar. Opaning mudira sifatida ish boshlaganiga endigina bir yil bo'libdi. Lekin shu oz fursat ichida amalga oshirgan ko'plab xayrli ishlari yaqqol ko'zga tashlanib qolibdi.

-Xatirchi tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli bo'lgan «Yulduzcha» nomli maktabgacha tarbiya muassasamiz 1972-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelyapti, deya so'z boshladi mudira opa. -Bog'chamiz zamonaviy tipda qurilgan, o'yinxona, yotoqxonalar, yuvinish, ovqatlanish, yechinish, musiqa va ma'naviyat xonalari kerakli anjomlar bilan jihozlangan. 27 nafar oliy va o'rta ma'lumotli tarbiyachi va xodimlarimiz bolajonlar qoshida parvona.

Bolajonlarimiz tuman miqyosidagi turli tadbirlarda faol

ishtirok etishadi. Tuman miqyosida o'tkazilgan «Jajji malika» tanlovda ishtirok etgan Madina Obloqulova ismli qizchamiz 1-o'rinni olib kelgan bo'lsa, viloyat miqyosidagi «Sog'lomjon-Polvonjon», «Quvnoq startlar» kabi sport musobaqalarida qatnashgan sportsevar bolajonlarimizga 2-o'rin nasib etdi.

Bog'chamizda kichkintoylarning yayrab yurishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Bu ishlarda homiyalarimiz -RTS, Mashina Traktor parki kabi tashkilotlarning ham munosib hissalarini bor.

Yaqinda tarbiyalanuvchilarimiz hunarmandchilik kichik korxonasi rahbari Bahrom Oydinovdan ajoyib sovg'a-salomlar olishdi. To'kin dasturxon atrofida shirinliklar bilan siylanishdi. Meni ko'pchilik tanigan bilganlar «talabchan rahbar» deyishadi. Balki tarbiyachilardan mashg'ulotlarni yangi pedexnologiya usullari asosida olib borishlarini talab qilganim uchun shunday deysalar. Lekin ularning aqliy hujum, test sinovlari, o'yin usullaridan keng foydalanishlari uchun yetarlicha sharoit bo'lishi bilaman va yaratib berishga harakat bolajonlar bilimini



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...



Yutuqlar o'zimizniki, kamchiliklar ham...

**Safarimiz davomida Navoiy shahrida ham bo'ldik. Bolalar sport murabbiylari, ijodkor o'quvchilar bilan tanishdik. Quyida ular bilan siz ham tanishasiz, ijodlaridan bahramand bo'lasiz:**

**KO'RGAN SPORTCHI DEYDI...**

Roul aka Xayitovni ko'rgan odam uning sportchi ekanligini darhol fahmlaydi. Bichimi ixcham, harakatlari chaqqon, odimlari ildam bu inson umrining 32 yilini bolalar sportiga bag'ishlab kelayotgan fidoyilardan biri. O'z faoliyatini 1986-yili Bolalar va o'smirlar sport maktabi direktorligi vazifasidan boshlagan Roul aka mana 10 yildirki, sonli Bolalar va o'smirlar maktabida sportning yengil atletika turi bo'yicha bosh murabbiy vazifasida ishlab kelmoqda.

Hozirda G'ulom Yakvachayev, Hamida Yormuhamedova, Aziza Ravshanova, Aliya O'razbekova kabi ko'plab umidli sportchilarga ustozlik qilayotgan Roul akaning ibrat bo'larli jihatlari juda ko'p.

Eh-he, qay birini yoziylik?! 1968-2000-yillarda Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida bo'lib o'tgan musobaqalarda chempionlikni qo'lga kiritganimi, 1971-yilda O'zbekiston maktablari spartakiadasi chempioni, 1976-yilda esa O'zbekiston Yoshlar Chempioni bo'lganimmi, 1985-86-yillarda Moskva shahrida o'tkazilgan Xalqaro musobaqada qatnashib, AQSH, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Yaponiya kabi o'nlab davlatlardan kelgan sportchilar ustidan to'liq g'alaba qozonganimmi?.. Murabbiyimizning samaralari mehnatlari munosib taqdirlandi. 2004-yilda yurtboshimiz tomonidan «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.


Kamtarga kamol, deganlari shu bo'lsa kerak-da, a, labbay!!

Rufat Boboqulov Navoiy shahridagi «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchisi. U 7-sinfda a'lo baholarga o'qish bilan birga shu yerdagi «Nafosat» nomli rassomlik to'garigiga ham qatnab keladi. 30dan ziyod yosh musavvirilarga ustozlik qilib kelayotgan Dilbar opa Bozorovadan rasm chizish sirlarini mukammal egallashga intiladi.

Rufatning chizgan Xo'rozvoyi va Bo'g'irsoqioni birga juda yoqdi. Sizga-chi?!



## YANGI O'QUV MILEGA SOVG'A



Yurtimizda sportsevar bolajonlar uchun yangi qurilayotgan va qayta ta'mirlanayotgan sport inshootlari soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan ham Istiqlol yillarida ko'plab qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Jamg'armaning 2006- yilgi manziliy dasturi bo'yicha, Beruniy tumanidagi 67-maktab qoshida shu yilning 1-iyulida V Tip Bolalar sport kompleksi foydalanishga topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 12,5 million so'mlik sport jihozlari berildi. Taxtako'pir, To'rtko'l tumanlaridagi 25 million so'mlik mablag' ajratilgan bolalar sport maydonchalarini qayta ta'mirlash ishlari yakunlandi.

Shuningdek, QQRning bir nechta tumanlari maktablarida, jumladan, Amudaryo tumani Oxunboboyev dehqon fermer xo'jaligidagi 21-sonli, Nukus tumani «O'mnak» shirkat xo'jaligidagi 9-sonli, Chimboy tumanidagi 41- va 32-sonli, Taxiatosh shahridagi 4-sonli, Xo'jayli tumanidagi 31-sonli, Mo'ynoq tumanidagi 6- va 7-sonli maktablar qoshida qad rostlagan sport maydonchalari yangi o'quv yilida bolajonlar uchun ajoyib sovg'a bo'ladi.

Akmal ABDIYEV.

## MURABBIYNING OPPOQ ORZUSI

Istiqlol tuhfasini

Yaqinda Samarqandda Markaziy Osiyo davlatlarining eng sara, yosh polvonlari, Osiyo chempionatining g'olib va sovrindorlari hamda Turkiyadan kelgan alp qomat sportchilar ishtirokida «Samarqand kubogi» nomli 2-Xalqaro turnir bo'lib o'tgandi.

O'shanda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi samarqandlik yosh polvonlarga zamonaviy kurash gilamlari hadya qilgandilar. Bugun shu gilamlar «Kattaqo'rg'on» mahallasida joylashgan ajoyib sport majmuasida mahalla bolalari ixtiyorida.

O'tgan yili Mustaqillik bayrami kuni foydalanishga topshirilgan ushbu sport majmuasi bugun 200 dan ziyod yosh polvonlarning kurash maktabiga aylangan. Ya'ni, majmua erkin va yunon-rum kurashiga ixtisoslashgan, Bolalar va o'smirlar sport maktabi rahbari Hakim Naqibov kurash fidoyisi. U bolalar bilan

shunchaki shug'ullanmaydi. Murabbiyning oldiga qo'ygan maqsadlari bor. «Shogirdlarim O'zbekiston, Osiyo va jahon chempionlari bo'lishsa», deya niyat qiladi jonkuyar ustoz.

–Har biringizning mashg'ulotga kelganingiz bittadan daraxt ekkanday gap. Sizning mashg'ulotlarda to'kkan teringizdan o'sha daraxt rivojlanadi. Ya'ni, terlasangiz, daraxt ko'karadi va albatta meva beradi. Meva bu – medal degani. Agar muntazam mashq qilmasangiz, ter to'kmasangiz, o'sha daraxt quriydi, deydi u doim shogirdlariga.

Kurash maktabida Olim Bagirov bosh murabbiy bo'lsa, G'ulom Samadov, Sherxon Shodmonov, Ashur Nurullayev kabi murabbiylar u kishiga kamarbasta.

Samarqandning barcha tumanlarida erkin va yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchilar ko'pchilikni tashkil etarkan. Lekin Bulung'ur, Urgut, Poyariq tumanlaridagi kurash gilamlari ancha eskirgan. Agar Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining viloyat filiali bu tumanlarga kurash gilamlari ajratishsa, mohir sportchilarimiz soni yanada ko'payardi.

Gulchiroy ASQAROVA,

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi S.Ergashev nomidagi 97-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

## Qishlog'imiz polvonlari

O'ratepaning Chorbog' qishlog'ida Toshmurod ismli dorishunos yashagan ekan. Kunlardan bir kun uning oilasida kenja farzand dunyoga kelibdi. Unga Safarboy deb ism qo'yishibdi. Bola juda sog'lom tug'ilibdi. Nima bo'libdi-yu, durkun o'sayotgan bolachaning nafas olishi qiyinlashibdi va birdan tinchib qolibdi. Shunda otasi Xudoga: «Ollohim, menga sog'lom farzand berding, endi uni qaytarib olmagin», deya nola qilibdi. Dod-voylar bilan ular bolaning jag'ini boylashibdi-da, mulla Otajonni olib kelgani jo'nabdilar. Mulla Otajon kelib bolaning jag'ini yechib tashlabdi. «Menimcha, bola hali o'lgani yo'q. Men bomdod namozini o'qib kelaman», deya chiqib ketibdi. Bu gapga ishonishini ham, ishonmasligini ham bilolmay turgan ota: «Qaniydi shu gap rost bo'lsa», deb o'ksib-o'ksib yig'labdi. Bola esa hamon nafas olmay jim yotarkan. Hash-pash deguncha dorishunosning hovlisiga odam sig'may ketibdi. Toshmurod akaning ayoli dod-faryod qilib sochlarini yulibdi. Namozdan qaytgan mulla Otajon bolaning boshi va qo'llarini ushlab ko'ribdi-da, otasiga qarab: «Derazalarni ochib yuboring», debdi. So'ng, baland ovozda duo o'qiy boshlabdi. Duo juda uzoq o'qilibdi. Ollohning irodasini qarangi, bola sekin-sekin nafas ola boshlabdi. Mulla Otajon: «Bolani onasiga beringlar, vahima qilib bolani bezovta qilmasinlar», debdi.

Shu tariqa Safarboyga Yaratgan qayta umr beribdi. Mulla Otajonning taklifi bilan bolaga boshqacha ism berilibdi. Endi Uni Ahmadjon deb chaqira boshlashibdi va unga uzoq umr tilab, polvon bo'lsin deya niyat bildirishibdi.

Kunlar o'tib, chindan ham Ahmadjon zo'r polvon bo'libdi. U 20 yoshidayoq O'rta Osiyoda dovrug' taratibdi. Maydonda kurashga tushganida ham eng qiyin amallarni qo'llab, raqiblarini kuragini yerga tekkizar ekan. Shu usullari bilan manaman degan polvonlarni yengarkan. Aytishlaricha, Sahobo, Laylak, O'ratepa va Chorbog' sayllarida bu polvonga talabgor topilmas ekan.

Hozirda Ahmadjon polvonning yoshi 50dan o'tgan bo'lsa-da, mahallaning bir qancha o'g'il-qizlariga murabbiylik qiladilar. Toshmurod dorishunos davralarda o'g'lining qo'li baland kelayotganini ko'rib quvonadi: «Bu yerda bo'ladigan kurashlarga endi o'zing bosh-qosh bo'lg'in, o'g'lim. Kurash tojik, o'zbek, qirg'iz, turkman va qozoq xalqlariga ajdodlaridan qolib kelayotgan merosdir. Ular bilan aloqani uzma, hamisha halol inson bo'lg'in», deya o'g'liga nasihat qiladi.

Nosir AZIZOV,

Osiyo belbog'li olish kurashi federatsiyasi sport direktori.


## JAHONGA CHIQAQOTGAN SHAXMAT MAKTABI

Samarqand viloyati shaxmat-shashka Bolalar va o'smirlar sport maktabi bolajonlarning sevimli dargohiga aylangan. Bu maktabdan yetishib chiqqan grossmeysterlar Shuhrat Safin, Aleksey Barsov, Marat Jumayev, xalqaro toifadagi sport ustasi Tohir Vohidov, opa-singil Shahnoza va Iroda Hamroquvalarning yuqori natijalarini barcha sport ixlosmandlari yaxshi biladilar. Tarbiya-natijalari sabab sport «Olimpiya Bolalar va maktabi» maqomi

Sport maktabida shaxmat va shashka guruhida 566 nafar o'g'il-qizga Ularning besh nafari oliy O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Shahob Hamroqulov, Rabbim Hamroqulov, Mavjuda Hamroqulova, Viktor Izmaylov, Ahmad Subxonqulovlar shular jumlasidan.

Yil davomida shaxmat bo'yicha viloyat va shahar birinchiliklari muntazam o'tkazilib kelinadi. Fidoyi murabbiy Bahodir Mirzaxo'jayev xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladigan turnir an'anaga aylangan. Shashkachilarning ham ko'rsatkichlari yomon emas. Xalqaro grossmeyster Markel Fozilov – jahon chempioni, Zokir Subxonqulov – Osiyo chempioni, Munira Tursunova esa yoshlar o'rtasidagi qit'a chempionati g'olibasi...

Mustaqillik bayrami arafasida viloyat aholisiga Samarqand shahrida qurib bitkazilayotgan ajoyib shaxmat-shashka saroyi tuhfa qilinadi.



**Кадырман кыргызым! Кечээ түндө олтуруп Андижан облусунун Кожобат жана Жалакудук райондорундагы кыргыз окуучуларынын жазган ырлары, өзүнчө бир учкул сөздөрү, чакан билдирүүлөрү жана сызган сүрөттөрү менен таанышып чыктым. Чынын айтсам, ошол учурда алар менен кошо кайгырып, кошо күрдүм, ырларындагы мекен, устат жана ата-энеге болгон сүйүү, мээрим жүрөгүмдү чексиз элжиретти.**

**Алардын келечекке болгон умтулуулары, улуттар аралык достук мамилелери сиңген чакан, алгачкы чыгармалары баа жеткис табылга, ийгилик үчүн берилген старт.**

**Ушул орунда ыр жазуу боюнча бардык окуучуларга айтаарым: батарейкасыз саат жүрбөгөнү сыяктуу, ыр китептерди окумайын жакшы ырлар жазылбайт. Кыргызча китептерди көп окугула, ал силерди биринчиден сабаттуу кылса, экинчи жактан өз эне тилиңерди таза сактоого чоң жардам берет. Ошондуктан, артыкбаш буюмдан көрөк, ата-энеңерден, мугалимдеріңерден адабий китеп алып берүүсүн сурагыла.**

**Төмөндө өз курдаштарыңардын чыгармачылыктарынан кээ бир үлгүлөрдү беребиз. Ушул сыяктуу каттарды силерден күтүп калабыз. Жаңы окуу жылында силерге жаңы күч, жаңы дем жана ийгилик каалайбыз.**

Ташкент шаарындагы Республикалык билим берүү борборунун кыргыз тили методисти Гайратбек Токтобаев.

**Кыргыз-өзбек достугу**

**Достук**

Кыргыз өзбек бир туугандай жашаган  
Достук менен кылымдарды карыткан  
Түрк атадан таркаганбыз баарыбыз  
Кол кармашып дагы алга барабыз.



Динибиз бир, дилибиз бир элдербиз  
Бир максатты дайым көздөп келгенбиз  
Болсо дагы башка-башка тилибиз  
Биз керекпиз бирибизге-бирибиз.

Тууган болуп тамырлашып кеткенбиз  
Кыз беришип куда болуп келгенбиз  
Достугубуз каныбызга сиңишип  
Бир дарактай тамыр атып кеткенбиз.

Гүлзира КАМАЛОВА,  
Андижан облусу, Кожобат району  
№ 18 мектептин 8-класс окуучусу.

**Жакшы бала**

Жакшы бала иш кылган  
Иш кылса да бат кылган  
Жарым жарты кылбастан  
Ишин түгөл так кылган.

**Мекеним**

Киндик каным төгүлгөн  
Өзбекстан Мекеним  
Аны менен сыймыктанам  
Эгемендүү Мекеним.

Багында гүлдөр жайнаган  
Шагында булбул сайраган  
Койнунда балдар бактылуу  
Боорукер менин Мекеним.

Өзүндөн чыккан баатырлар,  
Амир Темура, Томарис.  
Дүйнөгө данк тараткан,  
Өзбекстан Мекеним.

Арзикан КЕНТАШЕВА,  
Андижан облусунун Жалакудук  
районундагы  
12-мектептин 8-класс окуучусу.

**УЛУУ АКЫНДЫ ЭСКЕРҮҮ**

Жакында биздин № 18 мектепте кызыктуу кече өткөрүлдү. Бул кече мектептин кыргыз тили жана адабияты сабактарынын негизинде уюшулган «Жаш талант» адабий ийриминин катышуучулары тарабынан даярдалып, кыргыздын улуу акыны Алыкул Осмоновдун чыгармачылыгына арналды. Кечедө окуучулар акындын өмүр жолуна, чыгармаларына арналып, токтолушуп, анын ырларынан, поэмаларынан үзүндүлөрдү чеберчилик менен көркөм окуп беришти. Ошондой эле, акындын турмушунан, чыгармаларынан алынган сахна көрүнүштөрүн коюшту. Улуу акындын көптөгөн ырларына обондор жазылгандыктан, анын обондуу ырларын окуучулар ырдашып, кечени баштан-аяк музыка коштоп турду. Окуучулар А. Осмоновдун өмүр жолу, чыгармалары боюнча буклеттер жасашып чыгармаларынын негизинде сүрөттөр тартышты, ошону менен бирге көргөзмө да уюштурушту.

Кече аябай кызыктуу өттү. Анын мындай кызыктуу өтүшүнө айрыкча 8-класстын окуучулары Халбаева И., Камалова Г., Жороев Э., Кожоназарова Н., Эргешова Н., Юнусова А., Замир кызы Гүлзиначар зор салым кошушту. Алар өздөрүнүн эмгектери менен көрүүчүлөрдүн, алкышына ээ болушту. Биз бул кечелен кыргыздын кайталангыс зор таланты А. Осмонов жөнүндө көп нерселерди биллип алдык. Мындай кечелер биздин мектепте тез-тез уюштурулуп турат.

Халида САБИРОВА,  
Андижан облусу,  
Кожобат району,  
18-мектептин 7-класс окуучусу.



**Мекен**

Мекен качпайт, өзүң качпасан,  
Мекенди тос жаман душмандан.  
Эсинде тут, жакшы, жамандап,  
Мекен болот сени алкаган.

Сыдык ЖУМУНАЗАРОВ,  
Жалакудук району,  
12-мектеп 4-класс окуучусу.

**БАЛАПАНДАР  
(Ангеме)**

Эрте жазда келишкен жуп чабалекейлер улам үйгө учуп кирип-чыгып жатышты. Өздөрүнүн тилинде өз ар сүйлөшүп, уя салуунун масилетин кылып жатышкандай. Сөрүнүн шыбына уя салууга киришишти. Улам бири чөп-чар тиштеп келип мыктылап, «кыш куюп ылай жасабай, ичи-тышын шыбабай» кооз уя салып коюшту. Ага-инилер Азат менен Канат эң алгач үйгө кирип-чыгып жаткан чабалекейлерди кызыга караганы менен, кийинчерээк анча деле көңүл бөлбөй коюшкан.

Экөөнүн арасы бир жаштан. Үйдө да, тышта да ынтымактуу ойношот, эгиздердей ээрчишип.

Арадан бир топ эле күндөр өттү. Бир чабалекей жем тиштеп учуп кетсе, сары ооз балапандарына жедире баштаганда «жакшы» деп назик үн чыгарышкан балапандар бир-биринен талаша ооздорун ачып, жемге умтулушту. Ага-инилер канчалык мойнун созуп, буттарынын учу менен туруп аракет кылса да, жем талашкан балапандарды даана көрө алышкан жок. Канаттын тынч эстип, батыраак балапандарды көрүүгө шашты. Ошол учурда жана бир нерсе кылт эте түштү Канаттын.

— Азат, узун таяк алып келели, уяны бузуп, балапандарды албайлыбы? — деди Канат.

Канаттын бул тапкан оюн Азат да туура көрдү.

Экөө атасы бутап таштаган даректин арасынан узунураак шырғыйды сууруп алышып, акырын сөрүгө чыгышты. Азат жуулдук кылып шырғыйды уяга карай көтөрүп көрдү. Кенири эле жетет экен. Таяктын учу жакындаганда балапандар чыйпылдашып, ооздорун чоң ачышып, жем сурашты. Эрдемсиген Азат уянын астына таягын туштап туруп, баркүчү менен түрткөндө уя бузулуп кетип, байкуш кызыл эт балапандар жерге карай кулашты. Канат кең футболкасынын этегин

чоюп, балапандарды тосту. Эки балапан футболкасынын этегине түшүп, бирөө жерге «топ» эте кулады. Жерге түшкөнүн Азат ала койду. Байкуш балапан араң эле дем алгансыйт. Берки экөө чыйпылдашып жатышты. Ага-ини эми гана эстерине келгенсип, бирин-бири, суроолуу карап коюшат. Ошол кезде апасы үйгө кирип баратып, балдардын колундагы кызыл эт балапандарды көрүп калды. Чыйпыйы чыгып жете келип, балдарынын жосунсуз ишине ачууланды. Дал ушул учурда чабалекейлердин бири жем тиштеп келип, уяын да, балдарын да таппай калды. Жан алакетке түшүп, бирде сыртка, кайра үйгө учуп кирип, үй ээлеринен жардам сурагансып жатты. Көп өтпөй жем тиштеген экинчи чабалекей да учуп келди. Чабалекейлердин изденгенин көргөндө «тентек» уулдардын апасы түтпөй кетти. Терезеден атасын чакырды. Балдардын уяны бузгандыгын айтып, «эми бир айла кылып, эптеп уяны — ондоп берчи» деп суранды. Атасы да шок уулдарын ачуулуу карады. Бирок тилдеп отурган жок, бузулган уянын чөп-чарын чогултуп, ылайдан тегеретип уя жасады да, самандын майда топондорунан астына төшөп, балапандарды акырын коё баштады. Караса, баягы жерге түшүп кеткен балапан өлүп калыптыр.

— Чымчыктын уясын бузбай жүргүнүн. Сенин да үйүн бузулат, — деди атасы, балдарын жанына чакырып алып.

— Балапандарды кармабагыла. Колдун уусу өтүп, өлүп калат, — деди апасы. Ушундай насааттарды балдар энөөлүк кылбай, мурдараак эстерине түйүп жүргөн болушса, балким чабалекейдин уясы бузулмак да эмес, байкуш балапан да өлмөк эмес, ээ...

Батма АБДУХАМИДОВА.

**Aziz bolajonlar, sahifalarimiz orqali taniqli san'atkorlarning bolaligi, hayoti va ijodlari bilan yaqindan tanishib boryapsiz. Bugun Sizga tushuntirmoqchi bo'lganimiz san'atkor akangiz - San'atning milliy estrada yo'nalishida ijod qilayotgan Nodirbek O'rmonov 2003-yilda San'at institutining musiqali drama fakultetini tamomlaganlar. Ular bilan suhbatimiz qo'shiqchilik san'atining bugungi ahvoli haqida bo'ldi:**

**-Nodirbek, nima uchun drama fakultetini tamomlab, bugungi kunda qo'shiqchilik yo'lida ijod qilyapsiz?**

-San'atkor bo'lish bolalikdagi orzuim. Qo'shiq kuylashni yoqtiraman, shu bilan birga aktyorlikka ham qiziqaman. Qo'shiqda diplom emas, ovoz asosiy rol o'ynasa kerak. Shuning uchun ham drama fakultetiga hujjat topshirganman.

**-San'at yo'lini tanlashingizga nima turtki bo'lgan?**

-Esimni taniganimdan ashula kuylardim. Bolaligimda Oxunjon Madaliyev, Ilhom Ibrohimovlarning qo'shiqlarini tinglab katta bo'lganman. Lekin oilamiz san'atdan uzoq edi. Ancha-muncha qiyinchiliklar-u qarshiliklarga qaramay o'z xohish-istaklarim yo'lidan ketdim.

**-Nima uchun aynan milliy estrada yo'nalishini tanladingiz?**

-Bilmadim. Tabiatimga mos kelgani uchun bo'lsa kerak. Lekin zamonaviy estrada usulidagi qo'shiqlarni ham tinglashni yoqtiraman. O'zim rep yo'nalishida kuylamasam ham, shu yo'nalishdagi Shohruh reppening qo'shiqlaridan ayrimlarini, ayniqsa, oxirgi «Bolaligim» qo'shig'ini sevib tinglayman. Menimcha, zamonaviy estradada ijod qilayotgan yoshlar milliy estradani tinglab turishsa kerak...

**-Bu sizning fikringiz. Lekin hozirgi kunda har kuni yangrayotgan yengil-yelpi taronalar buning aksini ko'rsatib turibdi. Bunga sabab nima deb o'ylaysiz?**

-Men san'atkorlarga va qo'shiqlarga baho berishga hali juda yoshlik qilaman. Shunday bo'lsa ham hozirgi kun estradasidagi o'zgarishlarni ikki turga - salbiy va ijobiyga ajratish mumkin. Salbiyligi: ko'p yoshlarimiz bilib-bilmay chet el musiqalaridan foydalanishmoqda. Kliplardagi ayrim behayo sahnalarni-ku aytmasa ham bo'ladi. Ayniqsa, bugun chiqib, ertaga yo'q bo'lib ketadigan qo'shiqlar juda ko'p. She'r matniga umuman e'tibor berilmaydi. Nima uchundir ayrim tomoshabinlar ham qo'shiq so'zlariga bee'tibor. Ularga musiqa «zo'-o'r» bo'lsa bo'ldi. Ijobiy

tomoni esa: bugungi ayrim yoshlarimiz chet el andozalariga mos keladigan qo'shiqlar aytilish bilan birga, texnikaning barcha turlaridan foydalanib, kliplar olishmoqda. Va bu ularning nafaqat yurtimizda, balki chet davlatlarda ham tanilishlariga imkon yaratmoqda.

**Siz kutgan uchrashuv**

## «KO'NGLIM TO'LMAGUNCHA RAVO KO'RMAYMAN...»

**-Nima uchun shu qo'shig'ingiz TV larda yangramagan.**

-Xalq xizmatida qo'shiqlarini aytib, Hozirda 2-3ta qo'shig'ingizning ko'nglim to'lmagan narsani biron bir qo'shiqchilarning qo'shig'ini avval muvaffaqiyatli yozdirdim. Qo'shiqdan ko'nglim to'lmadi. Shuning uchun ham avval butun mehrimni berib ijod qilib, keyin efirga bermoqchiman.

**-Kelgusidagi rejalaringiz...**

-7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan tomoshabinlarim mo'ljallanishi uchun astoydil mehnat qilish.

**Ma'suda VOHIDOVA suhbatlashdi.**

**-Ustozlar haqida...**

-Ustozlarim an'anaviy maqomda Kommuna Ismoilova, boya aytib o'tganimdek Ilhom Ibrohimov va hozirgi kundagi ustozim Ozoda Nursaidova.

**paytgacha birorta kanallarida, radio-**


ustozlarning ancha tanilganman. g'im tayyor. Lekin o'zimga nisbatan narsani biron bir qo'shiqchilarning qo'shig'ini avval muvaffaqiyatli yozdirdim. Qo'shiqdan ko'nglim to'lmadi. Shuning uchun ham avval butun mehrimni berib ijod qilib, keyin efirga bermoqchiman.

ustozlarning ancha tanilganman. g'im tayyor. Lekin o'zimga nisbatan narsani biron bir qo'shiqchilarning qo'shig'ini avval muvaffaqiyatli yozdirdim. Qo'shiqdan ko'nglim to'lmadi. Shuning uchun ham avval butun mehrimni berib ijod qilib, keyin efirga bermoqchiman.

ustozlarning ancha tanilganman. g'im tayyor. Lekin o'zimga nisbatan narsani biron bir qo'shiqchilarning qo'shig'ini avval muvaffaqiyatli yozdirdim. Qo'shiqdan ko'nglim to'lmadi. Shuning uchun ham avval butun mehrimni berib ijod qilib, keyin efirga bermoqchiman.

ustozlarning ancha tanilganman. g'im tayyor. Lekin o'zimga nisbatan narsani biron bir qo'shiqchilarning qo'shig'ini avval muvaffaqiyatli yozdirdim. Qo'shiqdan ko'nglim to'lmadi. Shuning uchun ham avval butun mehrimni berib ijod qilib, keyin efirga bermoqchiman.

## «KELIN BO'LAMAN» DEYDI-YA...



Siz suratda ko'rib turgan mana bu qizaloqlar poytaxtimizdagi 506-bog'chada tarbiyalanayotgan Fotima va Zuhra Jafarovalardir. Ularni ko'rib, bir-birlariga xuddi ikki tomchi suvdek o'xshash bo'lgan bu shirintoylarni onalari qanday farqlasharkin-a, deb o'yladim. Keyin bilsam, ikkisining fe'l-atrofi turlicha ekan: Fotima og'ir-vazmin, Zuhra esa biroz qaysarroq, aytganini qildiradigan qizcha ekan.

**-Kat-ta bo'lsangiz, kim bo'lasizlar?-so'raymiz endigina 4 yoshni qarshilagan qizaloqlardan.**

**-Chiroyli kelin bo'lamiz,-deyishdi baravariga.**

**-Men yana «do'xtir» ham bo'laman,-qo'shib qo'ydi Fotima.**

Qizaloqlarning niyatlari ijobatini biz ham astoydil tiladik. Chunki, har bir qizning avvalo baxti butun bo'lsin, deyishadi-ku.

**Suratlash: V. MYASNIKOV.**

**Ustozlar bolalarga**

## NEVARAGINAM

Nonni «nanna», qandni «ohha» deb, Tili chiqqan nevaraginam. Shirinlikni, pechenyeni yeb, Tishi chiqqan nevaraginam. Asalganam, shakarim deyman, Erkalayman yuzidan o'pib. Butun mehrim unga bergayman, Ko'taraman bag'rimda quchib. Yetaklayman qo'lidan tutib, Istaganin olib beraman.

Xursandlikdan behad quvonib, Shodliklarga to'lib boraman. Bizga shodlik, quvonch keltirar, Asal, qand-u novvot nevaram. Kelajagi porloq, iqboli kular, O'g'il-qizim baxti nevaram. Ona kim-u, otani unga, Tanitgaymiz bag'ri kengligin. Har ikkisi o'xshar quyoshga, Farzandiga qalb issiqigin.

## USTOZIMGA O'XSHASAM DEYMAN

Jovdir-jovdir ko'zlari boqib, Gap-so'zlari bizlarga yoqib. Hammamizni ko'rib quvonib, «Alifbe»dan «O'qish» o'rgatgan, Ustozimga o'xshasam deyman.

Intizomni, odob, aqlni, Aytadilar ko'plab naqlni. Tushuntirib har bir faslni, Yomon nima, yaxshi aslni, Ustozimga o'xshasam deyman.

Qo'limizga qalam ushlatib, «O»dan boshlab «I»ni o'rgatib. Daftarlarni toza tuting deb, O'rgatguncha kuyibon pishgan, Ustozimga o'xshasam deyman.

Bo'lganimda o'qib muallim, Sizga o'xshab beraman ta'lim. O'rgataman odob va ilm, Ta'zim sizga ko'ksimda qo'lim, Ustozimga o'xshasam deyman.

**Abdunabi ISAJONOV,  
Toshkent tumanidagi 14-maktabning til-  
adabiyot o'qituvchisi.**

**TONG yulduzi**

**O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi**

**BOSH MUHARRIR:**

**Umida**

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Turobjon JO'RAYEV,**

**Dilbar OLIMJONOVA,**

**Botir UBAYDULLAYEV,**

**Jabbor RAZZOQOV,**

**Dilmurod RAHMATILLAYEV,**

**Dilshoda DADAJONOVA,**

**Feruza JALILOVA**

**(bosh muharrir o'rinbosari),**

**Sobirjon SHARIPOV,**

**Nurxon NAFASOV,**

**Ergashvoy SARIQOV.**

**Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida**

**022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.**

**Noshir:**

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi.

**Gazeta**

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va

chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

**Adadi - 17626**

**Buyurtma N: J 2725**

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Fazliddin**

**SHAYADGAROV**

Navbatchi:

**Jamila**

**ERDONOVA**

Musahhih:

**Nargiza**

**ABDULLAYEVA**

**Rassom:**

**Nodira MIRZAYEVA**

**Manzilimiz:**

**700129,**

**Toshkent shahri,**

**Navoiy ko'chasi, 30-uy.**

**Obuna indeksi: 198.**

**e-mail:**

**tong\_yulduzi@rambler.ru**

**Tel: 144-27-25**

**144-63-08**

**Tel./ faks:**

**(99871) 144-24-45**